
1-iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni keng nishonlandi

1-iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni, ya'ni bolalarni parvarishlash va ularning huquqlarini himoyalashga bag'ishlangan bayramdir. Bu bayram barchamizga bolalar - har bir murg'ak qalb egasi tashvishlardan yiroq, ezgulikka to'la lahzalar bilan ulg'ayishi kerakligi, qalblari quvonchga to'liq o'sishlari muhimligini yodimizga soladi.

Yozning ilk kunida Qo'shtepa tumanidagi **"MADANIYAT MARKAZI"** bolalarning quvonchli kulgulari jarangi bilan to'ldi. Bayramda ko'plab bolajonlarga bayram kayfiyati ulashildi. Tadbirda bolalar uchun ko'rgazmalar tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan **300** nafardan ortiq **"Maktabgacha ta'lim muassasi"** tarbiyalanuvchilariga esdalik sovg'alari topshirildi.

Bolalarning sog'lom va xotirjam holda ulg'ayayotgani yurtimiz kelajagi sog'lom avlod qo'lida ekanligidan darak beradi.















2019-06-03 13:15:39